


## Farg'ona viloyatining CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 6112,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 104,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 724,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,0%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 5387,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 558,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 %)ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Quva, Qoshtepa, Oltiariq tumanlarida qayd etildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,0 % ga o'sdi va 724,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,9 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 5387,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-- iyun oylariga nisbatan 102,8 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,1 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,8%), Sox' t (99,3%), Farg`ona t (99,3%) Uchko`prik t (98,8%) Furqat t (98,6 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 11,9% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`ona sh (27,6%), Qo`qon sh (15,5%), shaxarlari va Bag'dod tumani (17,7%) da kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	724,7	123,1	5387,9	102,8
<b><i>shaharlar</i></b>				
Farg'ona	429,6	143,3	1 125,4	99,9
Qo`qon	140,7	101,7	769,6	100,8
Quvasoy	4,5	39,1	137,5	108,5
Marg'ilon	34,0	76,0	445,7	108,0
<b><i>tumanlar</i></b>				
Oltiariq	7,3	102,7	222,1	103,9
Qo`shtepa	0,6	159,0	294,6	103,1
Bag`dod	39,7	224,2	183,9	100,0
Buvayda	3,9	114,1	213,1	103,6
Beshariq	3,2	87,5	220,4	104,9
Quva	22,5	283,8	278,1	101,8
Uchko`prik	2,7	106,0	227,3	102,7
Rishton	8,5	54,0	193,2	104,8
So`x	0,7	189,1	97,1	100,3
Toshloq	10,6	92,5	169,8	102,8
O`zbekiston	4,3	97,3	178,0	103,5
Farg'ona t	1,5	10,4	221,6	108,7
Dang`ara	3,7	105,0	134,7	102,8
Furqat	1,5	107,7	104,1	105,2
Yozyovon	5,1	92,6	171,7	104,3

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



2019 yil yanvar- iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 1653,3 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 102,9 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-iyun oyida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Farg'ona (5456,0 ming.so`m), Qo'qon (3647,1 ming. so`m) va Marg'ilon (2068,0 ming.so`m) shaharlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar O'zbekiston t (778,8 ming.so`m), Dang'ara t (814,5 ming.so`m) va Toshloq t (910,9 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1653,3</b>	<b>102,9</b>
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	5456,0	89,1
Qo'qon	3647,1	100,6
Quvasoy	1543,8	102,3
Marg'ilon	2068,0	104,5
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	1106,4	103,5
Qo'shtepa	1583,3	102,8
Bag'dod	1061,4	110,4
Buvayda	972,3	103,4
Beshariq	998,5	104,2
Quva	1186,2	106,6
Uchko'prik	1026,8	102,3
Rishton	1017,4	100,4
So'x	1279,9	100,3
Toshloq	910,9	101,7
O'zbekiston	778,8	103,0
Farg'ona t	1067,7	101,9
Dang'ara	814,5	102,5
Furqat	911,5	105,0
Yozyovon	1632,1	103,4


Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyun oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,6 % ni tashkil etib, 98,6 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % o`shiga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,0 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

### FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-iyun)

Yil boshidan viloyat bo`yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 2504,2 mlrd. so`mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 109,9 %ga o`tdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyun oylari yakunlariga ko`ra 1971,0 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 % ga o`tdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 78,7 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko`rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar (100,0%), Quvasoy shahar (100,0%), Qo'shtepa t (100,0%), Buvayda t (100,0%), Beshariq t (100,0%) va Quva t (100,0%) tumanlarida yuqori bo`lgan.

### Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 21,3 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Farg'ona (50,9%), Qo'qon (12,2%) shaharida hamda Bog'dod (19,4%) tumanida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2504,2</b>	<b>109,9</b>	<b>533,2</b>	<b>115,6</b>	<b>1971,0</b>	<b>108,4</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	953,6	122,0	485,7	117,6	468,0	127,0
Qo'qon	322,6	113,3	39,3	166,6	283,3	108,5
Quvasoy	41,3	108,9	0,0	0,0	41,3	108,9
Marg'ilon	327,6	107,6	0,1	6,3	327,5	108,0
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	49,5	106,2	0,1	71,3	49,4	106,3
Qo'shtepa	3,3	109,1	0,0	0,0	3,3	109,1
Bag'dod	26,4	101,7	5,1	26,3	21,2	326,8
Buvayda	36,4	108,6	0,0	0,0	36,4	108,6
Beshariq	27,1	106,9	0,0	0,0	27,1	106,9
Quva	18,2	100,8	0,0	0,0	18,2	100,8
Uchko'prik	82,3	96,9	0,6	100,0	81,7	96,8
Rishton	10,8	105,0	0,3	61,0	10,6	106,8
So'x	1,6	106,7	0,1	26,2	1,5	127,4
Toshloq	129,7	108,2	1,2	95,2	128,5	108,4
O'zbekiston	311,5	89,6	0,1	26,3	311,4	89,7
Farg'ona t	20,0	104,9	0,2	31,0	19,8	107,0
Dang'ara	110,1	108,8	0,3	105,6	109,8	108,8
Furqat	12,7	92,6	0,0	0,0	12,7	92,6
Yozyovon	19,5	97,5	0,2	77,2	19,3	97,8



**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining  
o`tgan yilga nisbatan o`zgarish sur`atlari, (%)**



Ulgurji tovar aylanmasida o`tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur`ati Ozbekiston t (89,6%) Furqat t (92,6%) va Uchkoprik t (96,9%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18